

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarini o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 378.014.15

**TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA TIBBIY-EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV USULI**

**ИНТЕГРАТИВНЫЙ МЕТОД РАЗВИТИЯ МЕДИКО-ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА**

**INTEGRATIVE METHOD OF DEVELOPING MEDICAL-ENVIRONMENTAL COMPETENCE IN
MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS**

Minavarov Adixamjon Anvarovich

Andijon davlat tibbiyat instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada tibbiyat oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlanirishning nazariy-metodologik asoslari, integrativ metodikasi va uni takomillashtirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, tibbiyat oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlanirishning integrativ usuli tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы совершенствования методики развития биоэтических знаний студентов-медиков, педагогические механизмы и технологические основы разработки. Также проанализированы интегративный метод развития медико-экологической компетентности студентов медицинского вуза.

Abstract

In the article, the theoretical and methodological foundations of medical-ecological competence development, integrative methodology and effectiveness of its improvement are studied. Also, an integrative method of developing medical-ecological competence in medical university students was analyzed.

Kalit so'zlar: tibbiyat, kompetentlik, tibbiy-ekologik kompetentlik, reproduktiv, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment, integrativ.

Ключевые слова: медицина, компетентность, медико-экологическая компетентность, репродуктивная, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспертная оценка, педагогический эксперимент, интегративный.

Key words: medicine, competence, medical-ecological competence, reproductive, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment, integrative.

KIRISH

Jahon ekologik inqirozining hozirgi og'ir sharoitlari, uni bartaraf etish zarurligi ekologik mezonlarni inson faoliyatining barcha tarmoqlari uchun majburiy va ustuvor vazifa sifatida kiritishni taqozo qilmoqda. Hozirgi sharoit innovatsion rivojlanirish strategiyasini amalga oshirish, inson va tabiat o'rta sidagi munosabatlarni optimallashtirishga, rivojlangan mahalliy va xorijiy yutuqlar asosida ekologik xavfsizlikni oshirishga qaratilgan kadrlar tayyorlashni talab qiladi.

O'zbekistonda jamiyatni ekologik tarbiyalashdan asosiy maqsad – yuqori ekologik madaniyatga ega, doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlanirishga intiladigan, nafaqat tez o'zgaruvchan ijtimoiy-ekologik sharoitlarga moslashuvchan, balki bugungi qilinayotgan ishlarning ertangi kundagi ekologik oqibatlaridan xabardor, ekologik mas'uliyatli avlodni shakkantirishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ekologik mas'uliyat, ekologik axloqiy qadriyatlar, ekologik ong va faoliyat, ekologik ta'llim-tarbiya metodikasi, tibbiy-ekologik kompetentlik masalalariga doir taddiqotlar N.A.Aгаджанян A.D.Ursul, T.A.Ursul, A.V.Ivanov, A.N.Malikov, L.N.Gumelev, S.P.Zalngan, A.A.Guseinov, V.I.Speranskiy, D.S.Ermakov, X.Nazarov, N.H.Hakimov, X.S.Xushvaktova, L.M.Abdunazarov, A.N.Nematov, G.M.Homidova, M.Z.Murodov, S.Mamashokirov, Z.Abdullayev, B.Ziyomuhamedov, I.Xoshimovalar tomonidan olib borilgan.

ILMIY AXBOROT

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limdi tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish kabi ustuvor vazifalarning belgilanishi muhim bo'lib hisoblanadi.

Kompetensiya - talabalarning "tahsil davomida fanlardan o'zlashtirgan nazariy va ilmiy bilimlarini o'quv jarayonida mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda vujudga keltirilgan o'quv muammolarni hal etishda ijodiy foydalana olish qobiliyatiga" sanaladi.

Kompetensiyaviy ta'limgan talabalarini fan, ishlab chiqarish, jamiyat, kelgusida mustaqil hayot va kasbiy faoliyatda vujudga keladigan asosiy muammolarni anglash va ular yechimini topish, to'g'ri va asosli qaror qabul qilishga zamin yaratadi.

Tibbiyot oliy ta'limgan muassasalari talabalariga ta'limgan-tarbiya berish bilan chegaralanmay, balki ularning ekologik bilimlarini yuksaltirish, tabiat boyliklarini asrash va tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojlarini rivojlantirishning asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, yosh avlodlar qalbida tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish talabalarning ekologiya haqidagi bilimlariga bog'liq. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami; bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti harakati, yashashdan maqsadi fikr yuritishi, orzu-istiklari, intilishlari, his-tuyg'ulari ekologik, jismoniy, ruhiy, axloqiy madaniyatiga bog'likdir. Oziq-ovqatlar odamni jismoniy va fiziologik jihatdan rivojlantirsa, ekologik madaniyat inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni takomillashtirishda muhim o'rinn tutadi.

Tibbiy-ekologik kompetentlik ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan jamiki yutuqlarni, o'qimishlilik, ta'limgan-tarbiya ko'rganlik ziyorilik kabi xususiyatlarni bildiradi. Tibbiy-ekologik kompetentlik insonlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Uni muttasil o'qish, o'rganish, bilim va ko'nikmaga ega bo'lish hamda tarbiya orttirish orgaligina erishiladi. Tibbiy-ekologik kompetentlik insonlarda qanchalik rivojlansa inson va tabiat ekologiyasi nimaligini biladi, umrini mazmunli tabiat quynida o'tkazish yo'llini izlab topadi, shu bilan birga tibbiy-ekologik kompetentligi rivojlanadi va tabiatgaadolatli yondosha boshlaydi.

Yuqori malakali va kommunikativ xususiyatlarga ega mutaxassislar jamiyatning inson kapitalini tashkil etadi va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonaviy iqtisodiyotning asosi va asosiy zaxirasi bo'lib xizmat qiladi. Dunyo hamjamiyati raqamli iqtisodiyot axborot va kommunikatsiya rivoji davrida turgan bir vaqtida, bo'lajak mutaxassislarni nafaqat bilim, ko'nikma va malaka bilan chegaralash balki, ularda umumiy va kasbiy kompetensiyalarni tarkib toptirishga e'tibor qaratilgandagina mutaxassis o'z faoliyat sohasida to'liq o'zligini namoyon qila oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda tibbiy-ekologik kompetentlikni mavjud kompetensiyalar asosida tibbiy-ekologik kompetensiyalarni fanlararo integratsiya orqali rivojlantirish, differensial yondashuv negizida tibbiy-ekologik kompetensiyalarning tarkib toptirish nazarda tutildi va bo'lajak mutaxassislarning malaka talablari asosida ekologik kompetentlikka ta'rif shakllantirildi.

Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentligi rivojlantirishni bir nechta bosqichga ajratildi:

Birinchi bosqich – motivatsion. Talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlar zaruriyatining ongli his qilinishi va maqsad, vazifalarni aniq ko'rsatishi lozim. Bunda talabalar ekologik faoliyat, tashabbus va "tibbiy-ekologik kompetentlik" tushunchaning asosiy mazmuni bilan tanishadi va ular tomonidan o'zlashtirilayotgan fan sintez qilinadi. Bu bosqichning birinchi qadami – bu ta'limgan oluvchilar motivatsiyasi. Bu maqsadda talabalarga ekologik jarayonlarni ongli anglashilishi uchun muhit yaratiladi (atrof-muhit, tabiat, inqirozlar haqidagi videolavhalar).

Ikkinci bosqich – reproduktiv-ta'limi. Ilmiy ekologik bilimlarni amaliy tajribalar orqali rivojlantirish. Ilmiy ekologik bilimlar tajribasini asoslanishi bilim, ko'nikma va malakalarni yanada mustahkamlab, kompetentlik darajasiga yo'naltiradi. Loyiha bilan ishslash algoritmini egallash jarayoni ijodkorlik faoliyatni rivojlantirishga, o'zgaruvchan dunyoda kerakli ekologik tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Loyihalashning nazariy qismida quyidagilar:

- dolzarb muammoni aniqlash;
- loyihalash uchun mavzuni tanlash;
- vazifaviy yoki g'oyaviy gipotezalarni ilgari surish;

- modellashtirishni amalga oshirish;
- ijodiy ishning taqdimotini tayyorlash va himoya qilish tavsiya etildi.

Uchinchi bosqich – konstruktiv. Bu bosqichda talabalar o'zlarining "metodlarini" namoyish etadi. Konstruktiv bosqichda shaxsning ijtimoiy- psixologik dunyosi yoritib beriladi. Taqdim etiladigan loyiha qaytadan ijodkorona ishlab chiqiladi. Talabalar guruhida mavzular turlicha bo'lishi mumkin, ammo tizim hosil qiluvchi asos yagona.

Bu bosqich ham bir necha qismdan iborat bo'lib, ular:

- muammoni o'rganish jarayonini axborot va innovatsion ta'lif texnologiyalari orqali jadallashtirish;
- talabalar javoblarni tahlil qilish va guruhash;
- o'quv maqsadlarni muammo daraxti orqali tasvirlash;
- loyiha ishi ob'ekti va predmetni aniqlash, g'oyalar generatsiyasini asoslash va dalillash;
- refleksiya hosil qilish va bilimlarni aksilogik qadriyatlarga aylanishi kuzatildi.

To'rtinchi bosqich – talaba shaxsi tibbiy-ekologik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishi.

Bu bosqichning o'ziga xosligi shundaki, talaba shaxsi o'z dunyoqarashida dunyo bilan yaxlitlikni his qila boshlaydi. Bu bosqichda talabalar tomonidan refleksiv, axborot, kommunikatsion, fasilitasion texnologiyalarni amalda qo'llash va bu texnologiyalarning samarasini ko'rish imkonini paydo bo'ladi. To'rtinchi bosqichni amalga oshirishda mental bilimlarni yaxlitlash va mazmun-mohiyatini tushunishga hamda egallangan bilimlarni hayotiy jarayonlarda qo'llash imkoniyatini paydo bo'ladi.

XULOSA

Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlar o'ziga xos imkoniyatga ega. Turli fanlar mazmunida ifodalangan nazariy, amaliy, seminar va mustaqil ta'lif mashg'ulotlari mazmunini yagona bir maqsadga, ya'ni tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan tizimlashtirish va maxsus mashg'ulotlar tashkil etish tadqiqot ishimizning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. Тошкент.: Зиё. 2004. - С. 172.
2. Абдукудусов О. Интегратив ўқув предметлари мазмуни ва тузилмаси -Т.: Халқ таълими Ж.1999/№1.-Б.16-17.
3. Агаджанян Н.А. Человек и биосфера. Медико-биологические аспекты. –Москва.: - С. 88.
4. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойихалаштириш ва режалаштириш: Ўқув услугубий қўлланма/ Таълимда инновацион технология серияси. – Ташкент.: 2010. –Б.149.
5. Данилов-Данильян В.И., Залиханов М.И., Лосев К.С. Экологическая безопасность. Общие принципы и российский аспект. — Москва.: МНЭПУ, 2001. –С. 332.
6. Ермаков Д. Приоритеты экологического образования: от изучения экологии – к устойчивому развитию // Народное образование. - 2005. № 2. – С. 122-126.
7. Ефимова О.Н. Социально психологические особенности экологического сознания работников производственных организаций Электронный ресурс.: дис. . канд. психол. наук: 19.00.05/0.н. Ефимова. — Кострома, 2010.-С.207.
8. Моргун Д. В. Информатизация экологического образования // Экология и жизнь. – 2012. № 11. – С. 33-35.
9. Нигматов А., Абдуназаров Л., Мухамедов Ш. Касбий экологик таълим ва тарбия.— Тошкент.:Иқтисодиёт-молия, 2016. –Б.160
10. Федотова Г.А., Методология и методика психолого-педагогических исследований. –Великий новгород, 2006. -С. 4.